

## TARBIYA FANIDA BADIY PEDAGOGIKA VA MILLIY MUSIQA ORQALI VATANPARVARLIK VA MILLIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHNING PEDAGOGIK SAMARASI

**Djanbayeva Sevara Farhod qizi**

*Guliston pedagogika instituti magistranti*

*E-mail: farhodvnasevara@gmail.com*

*Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada tarbiya fani darslarida o'quvchilarni badiiy pedagogika va milliy musiqa orqali vatanparvarlik va milliy qadriyatlarni singdirishning pedagogik samarasi haqida o'rganilgan. Shuningdek tarbiya fanini milliy musiqamiz bilan uyg'unlashtirish natijasida dars samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

*Kalit so'zlar: tarbiya, badiiy pedagogika, musiqa, ma'naviy immunitet, estetik tarbiya, vatanparvarlik.*

*Аннотация. В данной научной статье изучена педагогическая эффективность привития учащимся патриотизма и национальных ценностей через художественную педагогику и национальную музыку на уроках воспитания. Также разработаны предложения и рекомендации по повышению эффективности уроков за счёт гармоничного сочетания предмета воспитания с нашей национальной музыкой.*

*Ключевые слова: воспитание, художественная педагогика, музыка, духовный иммунитет, эстетическое воспитание, патриотизм.*

*Annotation. This scientific article explores the pedagogical effectiveness of instilling patriotism and national values in students through artistic pedagogy and national music in moral education classes. It also presents proposals and recommendations for improving lesson effectiveness by integrating the subject of moral education with national music.*

*Key words: education, artistic pedagogy, music, spiritual immunity, aesthetic education, patriotism.*

### KIRISH

Respublikamizda so'nggi yillarda maktab ta'limini umummilliy harakatga aylantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunan yangi bosqichga ko'tarildi. Bugungi kundagi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarni mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir [7]. Ta'lim muassasalarida yosh avlod ongida ma'naviy immunitetni mustahkamlash, milliy qadriyatlarga hurmat va vatanparvarlik tuyg'usini singdirishga alohida e'tibor qaratilmoqda [4]. Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Sayyoramizning ertangi kuni farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishiga bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o'z salohiyatini

namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdir” [1]. Mazkur yondashuv ta’limda, xususan “Tarbiya” fanida milliy musiqa vositasida ma’naviy tarbiya berishning dolzarbligini yanada oshiradi. Zamonaviy ta’lim tizimida o’quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularni milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash pedagogik faoliyatning eng muhim yo’nalishlaridan biridir [3]. Bu jarayonda badiiy pedagogika va musiqa metodikasining o’zaro uyg’unligi o’quvchilarning ichki kechinmalarini uyg’otishda, vatanparvarlik tuyg’ularini mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi [2]. Badiiy pedagogika — bu san’at, adabiyot, musiqa, teatr va tasviriy san’at orqali inson qalbiga ta’sir o’tkazish, estetik didni shakllantirish hamda axloqiy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan ta’limiy yondashuvdir. Tarbiya fanida bu yo’nalish o’quvchini hissiy jihatdan boyitadi, hayotiy voqealarga estetik baho berish ko’nikmasini shakllantiradi. Badiiy pedagogika — bu san’at orqali shaxsni estetik va ma’naviy jihatdan shakllantirish tizimidir. Uning eng ta’sirchan vositalaridan biri milliy musiqa bo’lib, u xalq ruhiyatini, qadriyatini, tarixiy xotirasini mujassamlashtiradi.

Milliy qo’shiqlar, maqomlar, laparlar, dostonlar va xalq kuylarida Vatanga muhabbat, ona yurtdan faxrlanish, ota-onaga hurmat, tabiatni asrash kabi yuksak g’oyalarni mujassam. O’quvchilarga musiqa orqali ma’naviy-axloqiy g’oyalarni yetkazish, ularni his-tuyg’u va idrok orqali tarbiyalash usullaridir. Musiqa nafaqat estetik zavq bag’ishlaydi, balki inson qalbini poklaydi, yurakda mehr, sadoqat, vatanparvarlik kabi hislarni uyg’otadi [4].

Tarbiya fanida musiqa vositasida darslarni tashkil etish quyidagi jihatlar bilan samarali bo’ladi:

- Vatanga muhabbatni shakllantirish: “Vatanim”, “O’zbekiston” kabi qo’shiqlar orqali o’quvchilarda yurtga sadoqat, xalq farovonligiga hissa qo’shish istagi uyg’onadi [6].
- Milliy qadriyatlarni qadrlash: Xalq qo’shiqlari, mumtoz ashulalar orqali o’quvchilar o’z milliy ildizlarini his etadi, an’anaviy madaniyatga hurmat bilan qarashni o’rganadi.
- Jamoaviylik va birdamlik tuyg’usi: Kollektiv tarzda kuylash yoki musiqa sahnalari ijrosi o’quvchilarda bir-biriga hurmat, do’stlik, hamkorlik ruhini mustahkamlaydi.
- Estetik tarbiya: Musiqa o’quvchilarni go’zallikka oshno qiladi, ularning nutq, mimika, his-tuyg’u ifodalarini boyitadi.

Tarbiya darslarida milliy musiqadan foydalanish didaktik, estetik va hissiy yondashuvni uyg’unlashtiradi. Tarbiya fanining “Vatanga muhabbat”, “Oilaviy qadriyatlar”, “Do’stlik va bag’rikenglik” kabi mavzularida musiqa metodikasidan foydalanish quyidagicha bo’lishi mumkin [5]:

*Tarbiya mavzusida qo‘llanish mumkin bo‘lgan milliy musiqa namunasi:*

Vatanga muhabbat “*Vatanim O‘zbekiston*”, “*Yagonamsan, O‘zbekiston*” Yurtga sadoqat, faxr va g‘urur hissini uyg‘otish;

Ona va oila qadriyati “*Onajon*”, “*Ona yurtning kuylaylik*” Onaga hurmat, oilaviy mehr-muhabbatni shakllantirish;

Mehnat va kasbga hurmat “*Mehnat qil, do‘stim*”, “*Yurt quramiz*” Mehnatsevarlik va mas‘uliyat tuyg‘usini rivojlantirish;

Do‘stlik va bag‘rikenglik “*Do‘stlik qo‘shig‘i*”, “*Yallama-yorim*” Hamjihatlik, mehr va insonparvarlikni mustahkamlash;

Tabiatni asrash “*Go‘zal tabiat*”, “*Bahor keldi*” Ekologik madaniyat va tabiatga mehrni oshirish;

Milliy qadriyatlar “*Lazgi*”, “*Tanovar*”, “*O‘zbekiston raqsi*” Milliy g‘urur, san‘at va madaniyatga hurmatni kuchaytirish.

Dars kirishida milliy ruhdagi sokin musiqa (masalan, “O‘zbekiston – ona Vatanim”) orqali o‘quvchilarni ruhiy jihatdan tayyorlanadi. Mavzuni o‘rganish jarayonida qo‘shiq matnini tahlil qilish, undagi g‘oyaviy mazmuni ochib beriladi. Yakuniy bosqichda o‘quvchilarning o‘zlari kuylashi, sahna ko‘rinishlari yaratishi yoki qisqa musiqa chiqishlari orqali his-tuyg‘ularini ifodalashlari mumkin. Musiqa bolalar qalbiga so‘z bilan yetkazib bo‘lmaydigan hissiy ta‘sir o‘tkazadi. Ayniqsa, o‘smir yoshdagi o‘quvchilar musiqa orqali o‘zligini anglaydi, ma‘naviy yetuklik sari intiladi. Tarbiya fanida milliy musiqalardan foydalanish natijasida:

- o‘quvchilarning ruhiy barqarorligi mustahkamlanadi;
- vatanparvarlik va fidoyilik tuyg‘ulari kuchayadi;
- madaniy saviya va estetik did rivojlanadi;
- milliy o‘zlik va qadriyatlarni qadrlash ko‘nikmalari shakllanadi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, badiiy pedagogika va musiqa metodikasining uyg‘unligi tarbiya fanini yanada jonli, ta‘sirchan va hissiy jihatdan boyitilgan darsga aylantiradi. Musiqa orqali o‘quvchilar Vatanga muhabbatni his qiladi, milliy qadriyatlarni chuqur anglaydi va hayotda ezgulik, tinchlik, mehr-oqibat kabi fazilatlarni qadrlashni o‘rganadi. Milliy qo‘shiqlar, maqomlar, laparlar, dostonlar va xalq kuylarida Vatanga muhabbat, ona yurtdan faxrlanish, ota-onaga hurmat, tabiatni asrash kabi yuksak g‘oyalar mujassam. Tarbiya fanini milliy musiqamiz bilan uyg‘unlashtirish bu nafaqat dars samaradorligini oshirish, balki o‘quvchi qalbida milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlikni his qilish va ma‘naviy immunitetni shakllantirishning eng ta‘sirchan yo‘lidir. Milliy musiqa — bu xalq qalbi, uning ruhiy boyligi va tarbiya manbaidir. Tarbiya fanini milliy musiqamiz bilan

boyitish o‘quvchilarga nafaqat bilim, balki his, estetik zavq, milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirishning eng ta’sirchan vositasidir. Har bir darsda milliy musiqa orqali o‘quvchilar “men shu xalqning farzandiman” degan faxrni yurakdan his etadi. Shu bois, tarbiya fani o‘qituvchilari uchun milliy musiqani dars metodikasiga kiritish bugungi kunning eng samarali pedagogik yondashuvidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. G‘ulomova M. Musiqa ta’limi metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Abdullayeva N. Badiiy pedagogika asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
4. Karimova N. Ma’naviy immunitet – yoshlar tarbiyasining asosi. – Toshkent: TDPU, 2022.
5. “Tarbiya” fani Davlat standarti 2023.
6. O‘zbekiston xalq qo‘shiqlari to‘plami. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018.